

2018 yilning 6 dekabrda Toshkentda O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi huzuridagi Davlat mulkini boshqarish bo'yicha davlat qo'mitasi huzuridagi Xususiylashtirish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda AQSHning "United Investment Healthcare Group" kompaniyasi o'rtasida "Dori Darmon" AK ni 5 yil muddatga ishonchli boshqaruvga topshirish to'g'risida shartnoma imzolandi.

Poytaxtimizda imzolangan ushbu hujjat milliy farmatsevtika kompaniyasining yangi rivojlanish strategiyasining huquqiy asosini yaratadi. Amaliyotga «Dori-Darmon» AK ni zamonaviy boshqaruv usullari, eksklyuziv axborot texnologiyalari, shuningdek, Amerika farmatsevtika sanoati mutaxassislari tomonidan kompaniya mutaxassislari malakasini oshirishning samarali tizimi tadbiiq etiladi.

"Dori-Darmon" AK tarkibiga 8 ta aktsiyadorlik jamiyati va 12 ta ma'suliyati cheklangan jamiyat kiradi. "Dori- Darmon" AK tizimida 2000 ga yaqin dorixona va ularning filiallari, shular jumlasidan 717 qishloq vrachlik punktlari va qishloq oilaviy klinikalari qoshida faoliyat yuritadi. So'nggi yillarda kompaniya moliyaviy holati keskin yomonlashdi. 2018 yilning o'tgan 11 oyi mobaynidagi faoliyati natijalariga ko'ra, horijiy hamkorlardan va banklar oldidagi qarzlari 125,4 mlrd. so'mni va 54 mlrd. so'mni tashkil etdi.

"United Investment Healthcare Group" kompaniyasi guruhi a'zolari sog'liqni saqlash, farmatsevtika, bank va moliya sohasida ko'p yillik tajribaga (40 yil) ega. PRS Inc.(AQSh) kompaniyasi ishtirokida (1982 yilda tashkil etilgan), "United Investment Healthcare Group" loyihaviy kompaniyasi tomonidan Qo'shma Shtatlar va Evropadan yuqori malakali mutaxassislar guruhini o'z vaqtida va ma'lum bir sifat darajasida muayyan loyihani amalga oshirish uchun tashkil etdi. PRS Inc. (AQSh) (1982 yilda tashkil etilgan) "United Investment Healthcare Group" kompaniyasining O'zbekistondagi hamkori hisoblanib, u xalqaro farmatsevtika sohasidagi etakchi maslahatchi deb e'tirof etiladi. AQSh-O'zbekiston farmatsevtika loyahasida "United Investment Healthcare Group" hodimlarining tajribasi va innovatsion mahsulotlari ham loyihani amalga oshirishda qo'llaniladi.